
“USTOZLAR MILLIY FORUMI” ISHTIROKCHILARI UCHUN BAYRAM TADBIRI BO‘LIB O‘TDI.

Eng ulug‘, eng aziz bayram – Mustaqilligimizning 31 yilligini munosib kutib olish maqsadida forum qatnashchilari uchun bayram konserti tashkil etildi. Tadbirga ta‘lim-tarbiya tizimida alohida o‘rnak ko‘rsatgan, tumanda ta‘lim tizimini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shayotgan ustoz murabbiylar hamda uzoq yillar ta‘lim tizimida samarali mehnat qilgan faxriy ustozlar ham taklif etildi. Bayram tadbirida ustozlar sha‘niga iliq fikrlar aytilib, bayram oldidan samimiy tilaklar bildirildi. Xushovoz xonandalar tomonidan ijro etilgan dilrabo kuy-qo‘shiqlar tadbirga o‘zgacha fayz qo‘shdi.

2022-08-25 20:11:40